



## XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdurashidova Dilnoza Abdusharof qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik  
grafikasi" ta'lim yo'nalishi 1 "D" guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11353981>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-may 2024 yil

Ma'qullandi: 25-may 2024 yil

Nashr qilindi: 27-may 2024 yil

### KEY WORDS

*Xalq amaliy bezak san'ati, milliy qadriyat, badiiy - estetik idrok, badiiy tafakkur, ma'naviy olam, shakl va rang, naqsh bezak, stillashtirish, ganchkorlik, so'zana, zargarlik buyumlari, misgarlik, chinnisozlik*

### ABSTRACT

*Maqolada, o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid badiiy estetik didini va olamini rivojlantirishda, xalq amaliy bezak san'ati asarlari namunalari o'rnini va ahamiyati borasidagi qarashlar, uni o'rganishga yo'naltirilgan ba'zi fikrlar, taklif va xulosalar yoritilgan.*

Jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalaridan biri – milliy qadriyatlarni, ma'naviy va ma'rifiy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni o'zida to'la mujassamlashtirgan, san'atning ko'plab turlari hamda ularni tarixini puxta biladigan komil shaxslarni yetishtirishdir. Shunday ma'sulyatli vazifani hal qilishning asosiy omili sifatida, murakkab va ko'p qirrali ta'lim-tarbiya tizimini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Mazkur tizimda yosh avlodni xalq amaliy san'ati vositasida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Biz bilamizki, san'atning teatr, kino, musiqa, tasviriy san'at kabi juda ko'plab turlari mavjud. Xalq amaliy bezak san'ati – bu san'at turlaridan mustaqil, o'zgacha ahamiyatga molik tomonlari bilan ajralib turadi. U o'z nomidan kelib chiqib amaliyotda, ya'ni turmushda qo'llaniladigan bezak san'ati kabi ma'nolarni anglatadi. Xalq amaliy bezak san'ati – turli va har xil shakldagi buyumlar, ko'cha va maydonlar, istirohat bog'lari, ishlab-chiqarish korxonalarini, o'quv-tarbiyaviy va dam olish muassasalari, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bevosita bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, u kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari va shu kabi ko'plab narsalarning bezagini ham o'z ichiga oladi. Demak, xalq amaliy bezak san'ati jamiyat turmushida shunchalik keng qo'llaniladiki, usiz turmushni tasavvur etish mushkul.

Shu o'rinda aytishimiz joizki, O'zbekistonning milliy xalq amaliy bezak san'atini go'zal, betakror nafis va bejirim naqsh bezaklarisiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Shuningdek, xalq amaliy bezak san'ati turi namunalari eng oddiydan boshlab o'ta murakkablarida ham, ularning o'lchamlari jihatidan olib qaraydigan bo'lsak mo'jazlaridan tortib to mahobatli namunalari ham o'zida boy nihoyatda chuqur ramziy ma'nolarni o'zida singdirgan turfa xil shakllarni ko'rishimiz mumkin. Shundayin nafis bezaklarni bolalar o'yinchoqlarida, beshiklarda, sandiqlarda, kursilarda, xontaxtalarda, turli-tuman qutichalarda, shaxmat taxtasida, otning egarlarida, choyshablarda, belbog'larda, so'zanalarda, palaklarda, kashtalarda, gilam-kigizlarda, zargarlik buyumlarida, zardo'zlik va shu kabi badiiy hunarmandchilikning ko'plab namunalari o'chratimiz, ko'ramiz.

Ma'lumki, jahonda har bir xalq va millatlarning o'ziga xos bo'lgan amaliy bezak san'ati va uning o'ziga xos bo'lgan turlari mavjud. Masalan, Xitoyda chinnisozlik san'ati, Rossiya matreshka o'yinchoqlar yasash san'ati, Turkmanistonda gilamchilik san'ati, Boltiq bo'yi mamlakatlarida dasturxon va sochiqlar tikish san'ati, O'zbekistonda esa naqqoshlik, ganchkorlik, kulolchilik, misgarlik, chinnisozlik, kashtachilik kabi qator amaliy bezak san'ati turlari mavjud va yaxshi taraqqiy topganligini ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, xalq amaliy bezak san'ati shunisi bilan ham diqqatga sazovorki, bu san'at turlariga doir istalgan buyumni tayyorlash jarayonida avvalo, har bir xalq o'zlarida mavjud material, o'ziga xos ananaviy texnologiya, o'zlarining ma'lum ish uslublari, o'zlarining yurtiga xos bezak gullari va ranglarini keng qo'llaydi.

Xalq amaliy san'atining asosiy maqsadi borasida aytish joiz bo'lsa, u – insonlar yashaydigan atrof-muhitni, bizni o'rab olgan narsa va buyumlarni chiroyli hamda ko'rkam qilishdan iboratdir desak xato bo'lmaydi. Zero, xalq amaliy san'atida go'zallik va qo'llanish (foydalilik) birligi degan ibora qo'llaniladi. Ya'ni, zaruriy narsa-buyumlarni faqat turmush tarzimizda qo'llanilgandagina go'zal va qo'lay bo'lishi mumkinligini bildiradi. Ammo, shuni ham aytish joizki, ayrim buyumlar bezaksiz bo'lganda ham go'zal va badiiy qiymatga ega bo'lishi mumkin. Chunonchi, bu buyumlarning shakli va materiali o'z navbatida qanday ahamiyatga ega ekanligiga bog'liq bo'ladi. Masalan, o'zingiz bir tasavvur etib ko'ring, aytaylik usta nihoyatda ajoyib bir shakldagi, tuzilishdagi, rangdagi, bezakdagi buyumni yaratgan, bu buyum har jihatdan ko'pchilikni e'tiborini qaysidir ma'noda o'ziga tortdi ham deylik, ammo, undan amaliyotda, turmushda foydalanib bo'lmasa, u narsani go'zalligi ham bo'lmaydi. Bir tasavvur qilib ko'ring, piyolani chelakdek kattalikda nihoyatda bezakdor qilib ishlansa, undan hech kim foydalana olmaydiku.

Demak, xalq amaliy san'atida shakl muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda, buyum har jihatdan maqsadga muvofiq ishlansa-yu, uni shakli topilmasa u ham chiroyli yoki badiiy hisoblanmaydi. Masalan, palovni solish uchun mo'ljallangan sopol laganni tog'ora yoki chelak shaklida tanlash aslo mumkin emas. Chunki, u laganni ishlatilish vazifasiga mutlaqo mos tushmaydi. Palovni kishilar tog'oradan qo'l bilan olib yeyishlari ularga ma'lum qiyinchilik va noqulayliklarni keltirib chiqarishi shubhasiz. Shu boisdan, xalq amaliy san'atiga oid buyumlarni yaratishda avvalo, buyum shaklini va uning o'z vazifasidan kelib chiqqan holda tayyorlab olish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, xalq amaliy san'ati buyumlarini tayyorlashda avvalo, uni tayyorlash uchun ishlatiladigan materialni to'g'ri tanlashga ham katta e'tibor qaratish zarur. Masalan, lagan yoki piyolani yog'ochdan, xontaxta va kursilarni toshdan, kiyim-kechaklarni loy yoki ganchdan tayyorlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi-ku. Chunki, bunday tanlanishi xato bo'lib aytib o'tgan buyumlarning o'z vazifasiga mos kelmaydi. Aytaylik, idish - tovoqlar tayyorlashda usta, unga oziq - ovqat yoki ichimlik solinishini nazardan qochirmasligi darkor. Mohir usta lagan tayyorlashni maqsad qilsa, uni metal yoki toshdan tayyorlamaydi. Sababi, agar lagan metaldan tayyorlanadigan bo'lsa birinchidan u og'ir, ikkinchidan esa unga suzilgan har qanday ovqat tez sovub qolishiga olib keladi. O'z navbatida uni yuvish va tozalash ham qaysidir ma'noda ma'lum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shunday ekan, xalq amaliy san'ati turlariga doir buyumlarni avvalo, usta yasaladigan buyumning galdagi vazifasini inobatga olib, uni yasash uchun mavjud barcha materiallardan foydalanadi, ular tuproq, tosh, suyak, yog'och, gazmol, ganch, metal va boshqalar bo'lishi mumkin. Shuningdek, so'nggi vaqtlarda sintetik materiallar ham keng qo'llanilayotgani sir emas.

Xalq amaliy san'atida rangning ham muhim ahamiyati bor. Zero, xalq amaliy san'ati asarlarini rangsiz tasavvur etish anchayin mushkul. Masalan, ayrim ustalarimiz yasaydigan buyumlarga ishlatiladigan asosiy materialga (masalan, yog'ochga) ishlov berib, ularni toboshobinga nisbatan ta'sir kuchini oshirsalar, boshqa ustalarimiz esa bo'yoqlar yordamida buyumlarga nafis ranglar berib ularning ko'rkiga ko'rk qo'shadilar. Xalq amaliy san'ati buyumlariga rang berishda ustalar yuqorida qayd qilinganidek, ularning vazifasidan, ishlatilgan materiallariga

katta e'tibor beradilar. Shuningdek, yasalgan buyumlar qaysi maqsadda va kimlar uchun, qaysi vaqtda va qayerda ishlatilishiga qarab shunga monand rang tanlaydilar. Masalan, kiyimlar uchun rang tanlanganda, ular qaysi jinsdagilar va qaysi yoshdagilar, qaysi vaqtda kiyilishi (bayram, to'y kunlari, motam kunlari, xizmat vaqtida v.b.)ga nihoyatda e'tibor beriladi. Misol uchun, tantana, bayram va to'ylarda kiyiladigan kiyimlarda quvnoq hamda jarangdor ranglar mohirlik bilan ishlatilsa, kundalik kiyimlarda esa vazminlik, xotirjamlik hislarini uyg'otuvchi ranglar keng qo'llaniladi.

Demak, shifoxonalar inter'erini bezash uchun qo'llanilgan ranglardan o'z navbatida o'quv yurtlari yoki o'quv muassasalarini bezashda foydalanish mumkin bo'lmaydi. Sababi, ranglarni odam ruhiyatiga ta'sir doirasi turlicha bo'ladi. Shu nuqtai nazardan shifoxonalarning bezagida ko'proq bemorlarni hissiy tinchlantiruvchi, yengil, tiniq ranglar ishlatilsa, o'quv muassasalari va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan korxonalarda esa kishilarni hayajonga soluvchi, ularni ruhiy tetiklashtiruvchi ranglarni keng qo'llanilishi bejiz emas. Zero, bayramona kunlarda kiyiladigan kiyimlarni tayyorlashda ularga iliq ranglarni berilishining sababi shundaki, bu kiyimlarni ko'rgan odamlarda ko'taringilik, quvonch hissini hosil qilishlik nazarda tutiladi. Kundalik turmushda kiyiladigan kiyimlarda bunday ranglar ishlatilsa, ular odamlarni tez charchatadi va bezovtalantiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xalq amaliy san'at buyumlari ularning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o'lchovlariga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Shundagina, ustalarimiz tomonidan tayyorlangan bunday buyumlar kishilarni nihoyatda hayajonlantiradi, to'lqinlantiradi va ularga zavq bag'ishlaydi. Hayotiy turmushlarida esa xalq amaliy san'atiga oid bunday buyumlarni ishlatganlarida ko'plab qo'llayliklarni his qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сулаймонов А., Абдуллаев Н. Тасвирий санъат. 7-синф ўқувчилари учун дарслик. – Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2014. – 80 б.
2. Ҳасанов Р. Мактабда тасвирий санъатни ўқитиш методикаси. – Т.: “Фан”, 2004. – 106 б.
3. Шавдиров С. А. Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 109-110.
4. Ibraimov X., Shovdirov S. Theoretical Principles of The Formation of Study Competencies Regarding Art Literacy in Students //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B10. – С. 192-198.
5. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.
6. Шавдиров С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари //Современное образование (Узбекистан). – 2017. – №. 6. – С. 15-21.
7. Шавдиров С. А. ТАСВИРИЙ САНЪАТ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎҚУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТАЛАБЛАРИ: Шавдиров Суннат Аслонович. Навоий давлат педагогика институти Санъатшунослик факултети, Тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси кафедраси катта ўқитувчи //Научно-практическая конференция. – 2022.
8. SAN'AT, Sunnat Aslanovich Shovdirov TASVIRIY, O'QUVCHILARNING O'QUV TA'LIMIDA, and KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TALABLARI. "SAI. 2023.No Special Issue 13." URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san-at-ta-limida-o-quvchilarning-o-quv-kompetensiyalarini-shakllantirish-tizimini-takomillashtirishning-pedagogik> (дата обращения: 03.12. 2023).
9. Ibraimov, X. "S. Shovdirov THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS." (2023).
10. Shovdirov S. A. TEACHING STUDENTS TO LOGICAL AND ABSTRACT THINKING IN THE FORMATION OF COMPETENCES ABOUT PICTURE LITERACY //JOURNAL OF ARTS AND HUMANITIES. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 40-44.

11. Shovdirov S. TASVIRIY SAVODXONLIKKA OID O 'QUV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O 'QUVCHILARNI MANTIQIY VA ABSTRAKT FIKRLASHGA O 'RGATISH //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 193-196.
12. Shovdirov S. A. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA O 'QUVCHILARNING O 'QUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TALABLARI //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 13. – С. 527-533.
13. Shovdirov S. A. TASVIRIY SAN'ATNI O 'QITISHDA O 'QUVCHILARNING SOHAGA OID O 'QUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – С. 8-14.

